BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-BAHOLASH

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

“BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-BAHOLASH”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT: CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

deydi. Qaytib ketishdan umid uzgan jamoa zo’r harakat bilan jangga kirishdi va habashning lashkarlari ustidan g‘alabani qo’lga kiritishdi. Bu hikoyadan shu narsani tushunish mumkinki, inson ruhiyati shunday kuchga egaki, qachonki inson qalbida qo’rquv hukmronlik qilmasa har qanday vaziyatda ham imkon topib g‘alaba qozonish ishtiyoqi g‘olib keladi. Bu o’rinda Podshohning “jur’at va shijoati ko’proq bo’lsa, tezroq maqsad manziliga yetadi va murod chehrasini qasd oyinasida ko’ngli tilagandek ko’ra oladi” .

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Husayn Voiz Koshifiy insonda har kun va har doim uchraydigan bu kabi ko’plab ma’naviy - axloqiy fazilatlarni davom ettirish mumkin. Ammo odob masalasi bugungi kunda axborot hajmining keskin oshishi, zamonaviy texnologiyalarning ijtimoiy hayotga kirib kelishi yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarida e’tiborli bo’lishimiz zarurligini ko’rsatmoqda. Turli ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta’sir etadigan xabarlarlar va turli formatdagi axborot oqimi, “g‘oyasizlik” bilan sug‘orilgan tashviqot axborotlariga qarshi kurashuvchanlik immunitetini shakllantirish ta’lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish o’tmish mutafakkirlarimizning boy ilmiy merosini o’rganish orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhay Abduraxmonov. Saodatga eltuvchi bilim. –T.: “Movarounnahr” 2004. 525-bet.

2.Егоров Е.Д. Праксиология: Основы теории. Часть 2. Субъекты отношений. — Москва: Юстицинформ, 2020. — 238 с. с. — ISBN ISBN 978-5-7205-1625-3.

3.Бобров В. В., Черненко А. К. Правовая технология. — Новосибирск: ИЗд-во СО рАН, 2014. — с. 157.

4.Саидов А. Сравнительное правоведение.- Т.:Адолат, 1999. – С.454.

5. Ҳусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. Футувватномаи Султоний. Форс тилидан А.А.Мадраимов ва б.(тарж), “O‘ZBEKISTON” 2019й. 155-б.

6. Ashurova M. Futuvvat (Javonmardlik) - axloqiy tarbiya asosi // “Pedagogik mahorat” Ilmiy nazariy metodik jurnal. 2021-yil 2-son. –p.106.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Qambarov Mirzobobur Baxodir o‘g‘li
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyati sifatini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, faoliyat, ta’lim, o‘quvchi, motivatsiya, axborot, zamonaviy.

Abstract. The article highlights the issues of improving the quality of educational activities of primary school teachers through the formation of life skills for students.

Key words: technology, activity, education, student, motivation, information, modernity.

Аннотация. В статье освещены вопросы повышения качества учебной деятельности учителя начальных классов путем формирования жизненных навыков ученикам.

Ключевые слова: Технология, деятельность, образование, ученик, мотивация, информация, современность.

Bugungi raqamli texnologiyalar asrida sifatli ta’lim va tarbiya muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan. Bugungi kunda zamonaviy talim nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini belgilab beruvchi mezon, balki ular dunyoqarashini, kelajakda ularning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini aks ettiruvchi muhim qadriyat bo‘lib ham hisoblanadi. Shunday ekan, o‘quvchilarni ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatga motivatsiyasini oshirish – bugungi kun pegagogining asosiy vazifasi sifatida namoyon

bo‘ladi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini qanday oshirishlari mumkin?

Dars jarayonida o‘quvchilarga tanlash uchun qisman erkinlik berish o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda muhim omil sanalib, juftlikda, kichik guruhlarda ishlash jarayonida sherik tanlash, hamkorlikda faoliyat yuritish jarayonida o‘ziga maqbul muhitni hozirlash, topshiriq va vazifalarni bajarish jarayonida o‘ziga ma’qul yo‘lni tanlash (qayta hikoyalashda grafik yoki kontekstdan foydalanish) jarayonida ko‘zga tashlanadi. Bunda dars jarayonida o‘quvchilarning intilishlari, qiziqish va maqsadlarini hisobga olish, ya’ni individual va differensial yondashuvni ta’minlash orqali o‘quvchining o‘ziga, o‘z kuchiga ishonchini oshirish orqali ularning kasb tanlash, omadli mutaxassis bo‘lishga ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarning yutuqlarini e’tirof etib borishi, ularning dars davomidagi yutuqlarini baholash o‘qishning sifatli va qiziqarli davom etishiga yordam beradi. Masalan, yutuqlar ro‘yxatini tuzib borish, ularni tez-tez eslatib, e’tirof etish, sinfda yutuqlar burchagini tashkil etish hamda burchakda o‘quvchilarning fotosurat (sertifikat, medal, kubok, faxriy yorliq…)larini namuna sifatida qo‘yish o‘quvchilarning mustaqil bolishida, o‘ziga ishonch hissini shakllantirishda, do‘stlariga nisbatan hurmat va havas tuyg‘ularini uyg‘otishida ijobiy o‘rin egallaydi.

Dars jarayonida o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat davomida muvaffaqiyatsizliklar tez-tez uchrab turadi. Tajribali pedagog bu uchun o‘quvchilarni jazolamasligi kerak. Chunki muvaffaqiyatsizlikning o‘zi ham bir jazo hisoblanadi. Psixologiyada muvaffaqiyatsizlik qo‘rquv va tanglikka olib keladi. Bu esa o‘quv jarayonini qiyinlashtirib yuboradi. Natijada o‘quv-tarbiya jarayoniga bo‘lgan motivatsiyani pasaytirib qo‘yadi.

O‘quvchilar uchun o‘qituvchining shaxsiy namunasi va pedagogic mahorat darajasi ham nihoyatda muhimdir. Chunki zamonaviy darsliklarda berilgan o‘quv materiali qiziqarli bo‘lishi uchun uning mazmunini to‘g‘ri yetkazib bera olish, o‘qitishning usul va yo‘llarini o‘zgartirib, almashtirib turish, bir xillik va takroriy usullardan chetlashish mahoratli pedagog uchun zarur bo‘lgan muhim fazilat hisoblanadi.

Mahoratli pedagog imkon qadar darsda har bir o‘quvchiga tez-tez murojaat qilishga intilib, doimiy ravishda “teskari aloqa” (jonli muloqot) qilib turish, ya’ni mavzuning tushunarsiz yoki noto‘g‘ri tushunilgan joylarini o‘z vaqtida isloh qilib boradi.

O‘z hatti-harakatlarini doimiy va maqsadli ravishda anglash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, atrofdagilar yurish-turishidan tegishli xulosalarni chiqarish, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon, ijobiy va salbiy oqibatlarni tushunish qobiliyatini rivojlantirishning asosi bo‘lgan sifatlarni - bolaning reaksiyasini, xotirasini, diqqati va tasavvurini (xayolotini) o‘stirib borish - har bir o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanmog‘i lozim. Chunki har bir mohir ustozning burchi o‘z fanini tarbiya vositalari yordamida nafaqat o‘qitish, balki uning fikrlashini rivojlantirishga erishish bo‘lmog‘i lozim.

Hozirgi kun talabiga asosan zamonaviy o‘qituvchi barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda o‘quvchilarni hayotga tayyorlash uchun darsni qiziqarli olib borish, axborotni yetkazib berishning hayotiy misollardan foydalanib, qiziqarli usullarni qollab amalga oshirishi zarur.

O‘quvchilarni hayotga qiziqtirishning eng qudratli vositalaridan biri - bu o‘yin hisoblanadi. O‘yin orqali dars jarayoniga qiziqtirish maktab yoshidagi eng samarali usul hisoblanadi. O‘yin orqali yosh maktab o‘quvchilarini boshqarish, yuqori sinf o‘quvchilarini maqsadga yo‘naltirish oson va qulaydir. Turli yoshdagi o‘quvchilarga mutlaqo turlicha mazmundagi o‘yinlar mos keladi. Bu jarayon inson ulg‘ayib borgan sari uning ruhiyatida shakllanayotgan yangiliklar bilan bogliq holatdir.

Kichik yoshdagi bolalarning o‘yinlari chiziqli (oddiydan murakkabga) xarakterga ega bo‘lsa, o‘rta yoshdagi bolalarning o‘yinlari jamoaviy (doiraviy), katta yoshdagilarniki esa shaxsiy maqsadlarda o‘zini yorqin namoyon qilishga qaratilgan bo‘ladi. Yuqori sinflarda notanish holatlarni qayta yaratish, voqelikning qiziqarli va g‘ayrioddiy modellarini ishlab chiqish asosida muammolarni hal etishga yo‘nalish muhim bo‘ladi.

O‘quvchi har bir yoshda o‘yinda o‘z o‘rnini topadi. Umuman, o‘yin jarayoni inson

shaxsiyatining, bilimlari va fikrlashining shakllanishiga ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda barcha o‘quvchilar qo‘lidan keladigan vazifalarni bajarish orqali muvaffaqiyat vaziyatini yuzaga keltirishi, yangi mavzularni avval o‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda o‘rganish jarayoni kuzatiladi.

Bundan tashqari darsda do‘stona, ishonch va hamjihatlikka asoslangan muhit yaratish orqali, o‘qituvchining yorqin va emotsional nutqi orqali ijobiy emotsional kayfiyat hosil qilinadi.

Shuningdek, darsda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining o‘z-o‘zini va boshqalarni baholashi, faoliyat natijasini baholash, ko‘p variantli (masalan, “Bu mashq nima uchun qiyin bo‘ldi?”, “Bu darsda nimani bildik, nimani o‘rgandik?” va hokazo) savollar orqali refleksiyaga erishish ham yuqori ahamiyatga ega. Chunki muammolarni, ziddiyatlarni birgalikda hal qilish, evristik suhbat, o‘quv munozaralari, jismlarning muhim belgilarini ajratish, tasniflash, umumlashtirish va modellashtirish orqali darsda samarali hamkorlikka erishish mumkin.

O‘qituvchi tomonidan darsda (rasmiy va norasmiy) baholar qo‘yilishi, tashakkur aytish, og‘zaki rag‘batfantirish, eng yaxshi ishlar ko‘rgazmasini tashkil qilish, o‘qituvchi tomonidan yo‘naltiruvchi kichik yordam ko‘rsatish, vazifalarni asta sekin murakkablashtirib borish orqali o‘quvchilarning faoliyatini rag‘batlantirish, entuziazm, optimizm muhitini yaratish, o‘quvchining o‘z qobiliyat va imkoniyatlariga ishonchini oshirish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali ta’lim jarayonini kafolatlasa, darsda har bir o‘quvchining shaxsiyatini hurmat qilish va ularga ijobiy munosabatda bo‘lish tarbiyaviy faoliyat samarasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. T.G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – T.:O‘qituvchi, 2007.

2. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy.

3. Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA META-PREDMETLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Toyirova Nazokat Moxirovna
Buxoro davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘qituvchisi
E-mail: n.m.toyirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘quvchilarning mavzu, meta-mavzu va shaxsiy natijalarini yaxshilashda, shuningdek, meta-mavzu natijalarini diagnostika qilish natijalari bo‘yicha o‘quvchilar uchun odatiy qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan uslubiy yordam ko‘rsatish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: kompetensiya, malaka, meta-mavzu kompetensiyasi, texnologik yondashuv, pedagogik texnologiya, ta’lim, meta-predmetli yondashuv, meta-predmetli faoliyat.

Аннотация. Эта статья посвящена учебным материалам для лечения студентов, метатемам и улучшению личной гигиены, а также диагностике.

Ключевые слова: компетенция, компетенция, метапредметная компетентность, технологический подход, педагогическая технология, образование, метапредметный подход, метапредметная деятельность.

Annotation. This article is about curriculum materials for student treatment, meta-theme and personal care improvement, and diagnosis.

Key words: competence, competence, meta-subject competence, technological approach, pedagogical technology, education, meta-subject approach, meta-subject activity.

Abdullayeva Feruza Nurillayevna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIIY ASARLARNI O‘RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH 167
F.M.Qosimov, R.Dilmurodova. VAQT O‘LCHOVLARINI O‘RGATISHDA IJODIY YONDASHISH. 171
M.M.Qosimova, Ikromova Sevinch. BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA O‘QITISHDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O‘RGATISH BO‘YICHA TAVSIYALAR 174
Adizova Nigora Baxtiyorovna. DIVERGENT TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM-TARBIYANING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI..... 177
Adizova Nodira Baxtiyorovna. TALABALARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI KORPUSLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI..... 179
Navruzova Muyassar Gaybullayevna. “FOLKLOR TILI” TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI..... 181
Xalilova Ruxsora Raupovna. VIRTUAL MULOQOTNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... 184
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA UCHROVCHI KIYIMGA YORDAMCHI BUYUMLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI..... 186
Xalilova Ruxsora Raupovna, Muzaffarova Niginabonu Ixtiyorovna, Nabiyeva Maftuna Nabi qizi. VIRTUAL MULOQOTDA XALQONA RUHNING IFODALANISHI..... 189
Rajabova Nodirabegim Komilovna. BLENDED LEARNING ARALASH TA’LIMDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 190
Yusufzoda Shabnami Yunus. RAQAMLARNI ANIQ VA CHIROYLI YOZISH METODIKASI 192
Narziyeva Mastura Sunnatovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI..... 197
Davronov Dilshodbek Ismoilovich. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA BADIIY MATN USTIDA ISHLASHDA INTEGRATSIYALASHGAN MEDIATA’LIMNING MAZMUNI VA UNING QO‘LLANILISH METODIKASI 200
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY QARASHLARIDA INSONIY FAZILATLARNING MA’NAVIY- AXLOQIY JIHATLARI. 202
Qambarov Mirzobobur Baxodir o‘g‘li. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI..... 207
Toyirova Nazokat Moxirovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA META-PREDMETLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH 209
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH 212
Husenova Aziza Sharipovna, Jalilova Shoira. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SIFAT SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI..... 214
Турдиева Нигора Саидовна. ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ 215
Ашурова Хуршида Асроровна. КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. 219
Aslanova Nargiza Xakimovna. DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA O‘QUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO‘NALTIRISH 221
Djurayeva Salomat Nabiyevna. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH 223
Nuradilova Aselxon Dilshodhuja qizi. INNOVATSION TA’LIM – YANGI NATIJALARGA QARATILGAN TA’LIM..... 226
Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna. KOMMUNIKATIVLIK TAMOYILI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH..... 228
Husenova Aziza Sharipovna, Akramova Nodira. BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV 232
Qayimov Laziz Mirzo o‘g‘li. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH..... 234
Aytbayev Dilshodhuja Temirbayevich. O‘ZBEK TILINING INTONATSION XUSUSIYATLARI 236
Салихов Шохрух Мансурович. ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНФОРМАЦИИ НОВОЙ ЭПОХИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ 238
Lukmonova Salomat Gafurovna. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH MUAMMO VA YECHIMLARI..... 242